

O‘SIMLIK TURKUMLARI VA ULARNING TABIIY JOYLASHISHLARI (XARITADA BELGILASH)

Inatillayeva Laziza

Qarshi davlat universiteti pedagogika fakulteti boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 3-kurs 023-75-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20307041>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘simliklarning asosiy turkumlari, ularning yer yuzida tabiiy tarqalishi hamda geografik joylashuvi haqida ma‘lumot beriladi. Shuningdek, o‘simliklarning iqlim, tuproq va tabiat zonalar bilan bog‘liqligi, xaritada ularni belgilash usullari ham yoritilgan. O‘simliklar biosferaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ekologik muvozanatni saqlashda katta ahamiyatga ega. Maqolada tropik o‘rmonlar, cho‘l o‘simliklari, tundra va dasht hududlaridagi o‘simlik turlari haqida batafsil ma‘lumot bberilgan.

Kalit so‘zlar: O‘simliklar, flora, tabiiy zonalar, o‘simlik turkumlari, geografik joylashuv, xarita, tropik o‘rmon, cho‘l o‘simliklari, tundra, dasht, ekologiya, biosfera.

Abstract: This article provides information about the main groups of plants, their natural distribution across the Earth, and their geographical locations. It also highlights the relationship between plants, climate, soil, and natural zones, as well as the methods of identifying and marking them on maps. Plants are an important part of the biosphere and play a major role in maintaining ecological balance. The article also gives detailed information about tropical forests, desert plants, tundra vegetation, and steppe regions.

Keywords: Plants, flora, natural zones, plant groups, geographical distribution, map, tropical forests, desert plants, tundra, steppe, ecology, biosphere.

Аннотация: В данной статье представлена информация об основных группах растений, их естественном распространении на Земле и географическом размещении. Также рассматривается взаимосвязь растений с климатом, почвой и природными зонами, а также способы их обозначения на карте. Растения являются важной частью биосферы и играют большую роль в сохранении экологического равновесия. В статье подробно описаны тропические леса, пустынные растения, растительность тундры и степных регионов.

Ключевые слова: Растения, флора, природные зоны, группы растений, географическое размещение, карта, тропические леса, пустынные растения, тундра, степь, экология, биосфера.

Yer yuzidagi barcha tirik organizmlar ichida o‘simliklar alohida o‘rin tutadi. Ular inson va hayvonot dunyosi uchun kislorod manbai hisoblanadi. O‘simliklar nafaqat oziq-ovqat, balki dorivor vosita, qurilish materiali va ekologik muvozanatni ta‘minlovchi muhim omildir. Yer yuzidagi turli iqlim sharoitlari o‘simliklarning xilma-xil bo‘lishiga sabab bbo‘lgan Har bir hududning tabiiy sharoiti — iqlimi, namligi, tuprog‘i va reliefi o‘simliklarning qanday turkumlarga mansub bo‘lishini belgilaydi. Shu sababli o‘simliklarning tabiiy joylashishini o‘rganish geografiya va biologiya fanlari uchun muhim hisoblanadi.

O‘simliklar tabiatning eng muhim tirik organizmlaridan biri hisoblanadi. Ular inson va hayvonlar hayoti uchun zarur bo‘lgan kislorodni ishlab chiqaradi hamda tabiatdagi ekologik muvozanatni saqlashda katta ahamiyatga ega. O‘simliklar tashqi tuzilishi, yashash muhiti va

biologik xususiyatlariga qarab bir necha turkumlarga bo‘linadi. Asosiy o‘simlik turkumlariga daraxtlar, butalar, o‘t o‘simliklar va suv o‘simliklari kiradi.

Daraxtlar ko‘p yillik, yog‘och tanali o‘simliklar bo‘lib, baland bo‘yli va mustahkamligi bilan ajralib turadi. Ularning ildizi chuqur rivojlangan bo‘lib, uzoq yillar yashaydi. Daraxtlar o‘rmonlarning asosiy qismini tashkil etadi va havoni tozalashda muhim rol o‘ynaydi. Eman, chinor, archa, qarag‘ay va terak daraxtlarga misol bo‘la oladi.

Butalar daraxtlarga nisbatan pastroq bo‘lib, bir nechta shoxlardan tashkil topadi. Ular asosan cho‘l, tog‘ oldi va quruq hududlarda keng tarqalgan. Butalar tuproqni mustahkamlash va eroziyadan saqlashda muhim ahamiyatga ega. Na‘matak, zirk, yantoq va bodomcha kabi o‘simliklar butalar turkumiga kiradi.

O‘t o‘simliklar esa yumshoq poyali bo‘lib, bir yillik yoki ko‘p yillik bo‘lishi mumkin. Ular inson hayotida oziq-ovqat va chorva yem-xashagi sifatida katta ahamiyatga ega. Bug‘doy, beda, lola va rayhon o‘t o‘simliklarga misol bo‘ladi. O‘t o‘simliklar asosan dasht, yaylov va dalalarda uchraydi. Suv o‘simliklari ko‘l, daryo, botqoqlik va boshqa suv havzalarida o‘sadi. Ular suv muhitiga moslashgan bo‘lib, ayrimlari suv yuzasida, boshqalari esa suv ostida yashaydi. Nilufar, qamish va suv o‘tlari suv o‘simliklariga kiradi. Bu o‘simliklar suv havzalarining ekologik holatini saqlashda muhim vazifani bajaradi. Shunday qilib, o‘simlik turkumlari tabiatning xilma-xilligini aks ettiradi. Har bir turkum o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lib, inson hayoti va tabiat uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

qilib aytganda, o‘simlik turkumlari va ularning tabiiy joylashuvi Yer yuzidagi hayot tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ularni o‘rganish orqali biz tabiatni chuqurroq anglaymiz. Bu bilimlar esa insoniyatga atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy bboyliklarda samarali foydalanish va kelajak avlod uchun sog‘lom ekologik muhit yaratishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

References:

1. Abdurahmonov I. Y. -O‘simliklar sistemasi
2. To‘xtayev A. S. - Botanika, Toshkent
3. Odum E.P. — Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish asoslari
4. <https://zenodo.org>
5. Geografiya darsliklari (tabiiy zonalar va iqlim mavzusi)
6. Atlas va xaritalar (biogeografik xaritalar)